

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA**

**Qarshiyeva Gulbahor Shomil qizi**

*Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasida Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi*

**Anontatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik jihatlari tahlil etilgan va pedagogik imkoniyatlar ko'rib chiqilgan. Chunki, bugungi kunda axborotlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, uni uzatish va qabul qilishning XXI asrdagi imkoniyatlari samarali ravishda o'sib bormoqda. Axborot maydoni fan va ijtimoiy hayot taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Ijtimoiy taraqqiyot barcha sohalar rivojlanishida aks etib boradi. Xususan, ta'lim sohasi ham ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida doimiy ravishda ijtimoiy hayot yutuqlarini o'zida aks ettiradi.*

**Kalit so'zlar:** *axborot, o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim, kompetensiya, pedagogika, fan, jamiyat, taraqqiyot.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются педагогические аспекты развития компетентности работы с информацией у учащихся младших классов и рассматриваются педагогические возможности. Потому что сегодня информация стала неотъемлемой частью жизни общества, а возможности ее передачи и приема в XXI веке эффективно растут. Информационное пространство стало важным фактором развития науки и общественной жизни. Социальный прогресс отражается на развитии всех сфер. В частности, сфера образования как часть общественной жизни постоянно отражает достижения общественной жизни.*

**Ключевые слова:** *информация, студент, педагог, образование, компетентность, педагогика, наука, общество, развитие.*

**Annotation:** *In this article, the pedagogical aspects of developing the competence of working with information of elementary school students are analyzed and the pedagogical possibilities are considered. Because today, information has become an integral part of society's life, and the possibilities of its transmission and reception in the 21st century are growing effectively. The information space has become an important factor in the development of science and social life. Social progress is reflected in the development of all areas. In particular, the field of education, as a part of social life, constantly reflects the achievements of social life.*

**Key words:** *information, student, teacher, education, competence, pedagogy, science, society, development.*

Ta'limning zamon talablari asosida rivojlanib borishi fundamental o'zgarishlar, yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Shuning uchun axborotlardan samarali

foydalanishning yo'llari va imkoniyatlarini topish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanib, ta'lim oluvchilarga axborotlarni o'zlashtirish, interpretatsiya qilish, qayta ishlash, ularning imitatsiyalarini yaratish, shu bilan birga, yangi g'oyalar asosida axborotlarni ishlab chiqish, o'zlashtirilgan axborotlarni integratsiya qilishga o'rgatishi, o'quvchilarni o'quv va hayotiy faoliyatida axborotlardan foydalanish kompetentligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirib borilishi bilan birga uni qo'llay olishga o'rganilishi ularni interpretatsiya qilish, qayta ishlash va imitatsiyalarini yaratish imkoniyatlarini beradi. Qadimgi Grek faylasufi Suqrot «o'qituvchining ijodkorligi, ... bu tayyor axborotni o'quvchiga yetkazishga emas, balkim, o'quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganligidadir» deb ta'kidlagan.

Axborot tushunchasiga ilmiy adabiyotlar, lug'atlarda turli ta'riflar keltirilgan. Masalan, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar, shu kabi ob'ektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar, qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar, shuningdek, «axborot» (lot. information – tanishtirish, tushuntirish) – falsafada qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma'no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha sifatida ta'riflar keltirilgan.

YuNESKO hulosasiga ko'ra, axborotlashtirish – bu axborotlarni to'plash, saqlash va uzatish vositalarining keng qo'llanilishidir. U mavjud bilimlarni tizimlashtirish va yangi bilimlarni shakllantirish hamda ularni joriy boshqarish, yanada takomillashtirish va rivojlantirish uchun qo'llashni ta'minlaydi.

Axborot bilan ishlash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlaridan iborat. F.M. Qo'chqorova tadqiqot ishlarida o'quvchida axborotlarni qayta ishlash ong osti mexanizmlarini faollashtirish hamda dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish komponentlari bo'yicha o'quv materiallarini strukturalash va bloklarga ajratishga urg'u bergan.

Ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari axborotlarning asosiy mazmunini, keng doirada qo'llanadigan ma'nosini tushunadilar. Shuningdek, ularni atrofdagi real voqeliklar mazmunini aks ettirgan axborotlardan ko'ra to'qima obrazlar, hayoliy voqealar, mavhum tushunchalar mazmunini aks ettirgan axborotlar ko'proq jalb qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, ular real voqea – hodisalar va predmetlarning asl mohiyatini tushunmaydi. Ularni o'quvchi o'z ongida aks ettira olmaydi. O'quvchi uchun ma'lum hayotiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlari tomonidan, yoki ular uchun to'qib chiqarilgan voqea-hodisalar ko'proq tushunarli. Shuning uchun axborotlarning tub mazmuni hamda ikkilamchi ma'nosi bilan tanishtirib borish muhim.

O'quvchilarning axborotning muloqot jarayonini ta'minlashga xizmat qiluvchi funksiyani anglashlari muhim. Ta'lim jarayoni – bu avvalo axborot almashinish jarayonidir. O'qituvchi o'quvchiga tegishli axborot beradi va o'z navbatida teskari

aloqa tarzida bayon qilingan axborotlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi.

Katta yoshli insonlardan farqli ravishda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda axborotlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur kabilar) ni, nutqining ravonligini, ziyraklik, sinchkovlik kabi xislatlarini rivojlantirishi bilan muhimdir. Haqiqatan ham, taraqqiy etib borayotgan axborotlar oqimi jamiyatida ijtimoiy rivojlanishning asosini an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishi» kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi. M.M.Vahobov fikricha «kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir».

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv «... kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi».

Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qaroriga ko'ra tasdiqlangan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartida kompetensiya «mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati» sifatida talqin etilgan.

Ilmiy adabiyotlar va lug'atlar tahlillariga ko'ra lotincha «competere» («layoqatli, munosib bo'lmoq») so'zidan kelib chiqqan «kompetensiya» so'zi shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasini anglatadi.

«Kompetensiya» tushunchasi ilk bor XX asrning 50–60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim N.Chomsky «Sintaktik strukturalar», «Sintaksis nazariyasining aspektlari» nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatida talqin etgan.

J.E.Usarov o'z ilmiy ishlarida kompetensiyaning «ma'lum soha yoki yo'nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan tayyorlikning namoyon bo'lishi

hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir» ta'rifini ko'rsatib o'tgan.

B.X.Xodjaevning fikricha «kompetensiya o'quvchining yangi shaxsiy tajribani o'zlashtirishga doir o'z-o'zini rivojlantirishga doir harakatlarini integratsiyalashga xizmat qiladi». N.A.Muslimov kompetentlik alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishi ekanlini ta'kidlaydi.

O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari Yu. Asadov, N.Turdiyev, S.Akbarova, D.Tumirovning tadqiqot ishlarida tizimlashtirilib tavsiflangan va o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida ular egallagan bilim, ko'nikma, malakalaridan hayotiy ehtiyojlarda qo'llay olish layoqat (kompetensiya) lari darajasini tashxislash va korreksiyalashning samarali vosita, usullari mazmun-mohiyati ochib berilgan. R.Fayzullaeva ta'lim jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarning yechimiga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya;

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;

Milliy va umummadaniy kompetensiya;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Tahlillar asosida tayanch kompetensiyalar:

- integrativ tabiatga ega bo'lib, shaxsning ijtimoiy hayot bilan integrativ tavsifi sifatida hayotiy faoliyatlar davomida zarur bo'lgan bilimlarni qo'llay olishni nazarda tutadi;

- shaxsning kompleks tavsifi sifatida shaxsiy sifatlarini ham o'z ichiga oladi;

- kompetensiyalar o'quv yoki hayotiy faoliyatlar davomida anglangan va anglanmagan tarzda namoyon bo'ladi;

- fanga oid kompetensiyalar o'z navbatida, ma'lum bir fanga oid bilimlarni o'sha fan sohalari bo'yicha qo'llay olishni ko'zda tutadi;

- ta'lim jarayonining natijalari o'quvchilarda shakllantirilgan va rivojlantirilgan kompetensiyalar bilan belgilanadi;

- kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Axborotlardan ta'lim jarayonida foydalanish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ammo boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot maydonidagi o'rni va roli yetarlicha

o'rganilmagan. Zero, ta'lim jarayonining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarga zarur axborot yetkazish, ularning o'zlashtirilishiga erishish hamda o'zlashtirilgan axborotlarni qo'llay olishga o'rgatishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova N.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121 betlar.

<http://scientists.uz/view.php?id=3348><http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>

2. Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30th Colletions of scientific works Warsaw 2022. / 115-121 betlar.

<https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>

3. Nasriddinova N. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2024. - 205 b.

4. Nasriddinova N. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish mazmuni. J / Ta'lim, fan va innovatsiyalar. 2023. № 5. 68-71-betlar.

5. Nasriddinova N. A. Methods for the development of reading literacy of primary school students through independent thinking. J / International Journal of Health Sciences. – Hindiston, 2022. –1690-1695-betlar.

<https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS5.8968>

6. Turanova Iroda Egamberdi qizi. Education of Primary School Students Based on International Assessment Programs as a Social Pedagogical Problem INTERNATIONAL JOURNAL OF FORMAL EDUCATION  
file:///C:/Users/Asd/Desktop/Ilmiy%20maqolalar/document-105-110-INTERNATIONAL%20JOURNAL%20OF%20FORMAL%20EDUCATION.pdf

7. Turanova Iroda Egamberdi qizi. Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 217–219. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5169>